

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.M.Maniyozov	
Inson-jamiat-innoiya dialektikasining ijtimoiy-falsafiy tahlili	206
Sh.Nazarova	
The portrayal of modern women in Bahmanyor's <i>Shahanshah</i> : a comparative analysis of urban and rural femininity in tajik literature	212
F.X.Utayeva	
Buxoroda tashkil etilgan yengil sanoat tarmoqlarining tarixi	215
J.Xusanov	
Kitobxonlikni yoshlar ma'naviyatga ta'siri	220
O.M.Karimov	
Mehnat erkinligi va inson qadr-qimmati tushunchalarining aksiologik tahlili	224
R.J.Soxibov	
Yoshlarda texnikaviy-estetik madaniyatni yuksaltirishning metodologik aspektlari	228
X.S.Qosimov	
Yoshlarda texnoetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	231
Sh.O'.Maxmudov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning estetik madaniyatini oshirishda musiqa ta'limi omilining ijtimoiy-falsafiy masalalari	234
M.A.Nuruddinov	
Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy zaruriyati	237



UO'K: 331.1:174

MEHNAT ERKINLIGI VA INSON QADR-QIMMATI TUSHUNCHALARINING AKSIOLOGIK TAHLILI**АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЙ СВОБОДЫ ТРУДА И ЧЕСТИ ЧЕЛОВЕКА****AXIOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCEPTS OF FREEDOM OF LABOR AND HUMAN DIGNITY****Karimov Oybek Mo'minjon o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti Falsafa va milliy g'oya kafedrası katta o'qituvchi (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada mehnat erkinligi va inson qadr-qimmatı tushunchalari falsafiy-aksiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Mehnat erkinligi insonning tabiiy huquqi sifatida, uning qadr-qimmatini ro'yobga chiqaruvchi asosiy vosita sifatida ko'riladi. Tadqiqotda mehnatga bo'lgan yondashuv, uning axloqiy va ijtimoiy qadriyat sifatidagi o'rni, shuningdek, insonning erkin va ongli mehnat faoliyati orqali o'z qadr-qimmatini anglash jarayoni chuqur tahlil etilgan. Xususan, mehnat erkinligining cheklanishi inson sha'nining poymol bo'lishi bilan bog'liqligi, bu esa ijtimoiy tengsizlik, zo'ravonlik va ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkinligi asoslab beriladi. Tadqiqotda G'arb va Sharq mutafakkirlarining fikrlari hamda zamonaviy ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar asosida umumlashma xulosalar chiqarilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются понятия свободы труда и человеческого достоинства с философско-aksiologической точки зрения. Свобода труда рассматривается как естественное право человека, как основное средство реализации его достоинства. В исследовании глубоко анализируется подход к труду, его место как нравственной и социальной ценности, а также процесс осознания человеком своего достоинства через свободную и осознанную трудовую деятельность. В частности, обосновано, что ограничение свободы труда связано с нарушением человеческого достоинства, что может привести к социальному неравенству, насилию и социальной изоляции. В исследовании сделаны обобщенные выводы на основе взглядов мыслителей Запада и Востока, а также современных социально-философских подходов.

Abstract

This article analyzes the concepts of freedom of labor and human dignity from a philosophical-axiological perspective. Freedom of labor is considered as a natural human right, as the main means of realizing human dignity. The study thoroughly analyzes the approach to work, its place as a moral and social value, as well as the process of self-esteem through free and conscious labor activity. In particular, it is substantiated that the restriction of freedom of labor is associated with the violation of human dignity, which can lead to social inequality, violence, and social isolation. The study draws generalized conclusions based on the views of Western and Eastern thinkers and modern socio-philosophical approaches.

Kalit so'zlar: mehnat erkinligi, inson qadr-qimmatı, aksiologiya, erkinlik, axloqiy qadriyatlar, falsafiy tahlil, ijtimoiy tenglik, sha'n va erkin mehnat, inson huquqlari, ijtimoiy adolat.

Ключевые слова: свобода труда, человеческое достоинство, aksiologiya, свобода, нравственные ценности, философский анализ, социальное равенство, честь и свобода труда, права человека, социальная справедливость.

Key words: freedom of labor, human dignity, axiology, freedom, moral values, philosophical analysis, social equality, honor and free labor, human rights, social justice.

KIRISH

Insoniyat tarixida mehnat har doim asosiy ijtimoiy va iqtisodiy faoliyat shakli sifatida namoyon bo'lgan. Mehnat insonning yashashi, o'zini namoyon qilishi va ijtimoiy qadriyatlar tizimidagi o'rnini belgilab bergan omillardandir. Aynan shu jihatdan olib qaraganda, mehnat erkinligi va inson qadr-qimmatı bugungi demokratik jamiyatlar taraqqiyotining asosi bo'lib, ularning falsafiy-aksiologik mohiyatini chuqur tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy muhitda bu ikki tushuncha o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, biri ikkinchisini shartli ravishda belgilaydi.

Ushbu maqolada mehnat erkinligi va inson qadr-qimmatı tushunchalari aksiologik (qadriyatlar nuqtai nazaridan) tahlil qilinadi. Bu ikki tushunchaning o'zaro bog'liqligi, tarixiy-falsafiy ildizlari,

hozirgi davrdagi talqini hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'zni falsafiy-nazariy asosda ko'rib chiqiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqotda mehnat erkinligi va inson qadr-qimmati tushunchalarining aksiologik jihatdan tahlil qilinishi uchun falsafiy, huquqiy va sotsiologik manbalar asosiy material sifatida tanlandi. E.Fromm[2] I. Kant[3], O.Hoffe, [4] N.Berdayev[5], Asen[6] va boshqa faylasuflarning erkinlik, mehnat va insoniy qadriyatlar haqidagi asarlari, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi[1], O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi[8] hamda milliy qonunchilikdagi mehnatga oid normalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, shuningdek, O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar va rasmiy statistik ma'lumotlar tahlil etildi [7]. Tadqiqotda aksiologik tahlil usuli asosiy metod sifatida qo'llanilib, mehnat erkinligi va inson qadr-qimmatining qadriyatlar tizimidagi o'zni baholandi. Shuningdek, tarixiy-falsafiy yondashuv orqali bu tushunchalarning rivojlanish bosqichlari o'rganildi, G'arb va Sharq falsafalaridagi qarashlar taqqosiy tahlil qilindi, xalqaro va milliy ma'lumotlar empirik-analitik yondashuv asosida tahlil qilinib, huquqiy hujjatlar hamda axborotlar kontent-analiz usuli bilan chuqur o'rganildi [9][10]. Bu metodlar birgalikda mavzuning ilmiy asoslangan, kompleks yoritilishini ta'minladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mehnat erkinligining falsafiy mohiyati deganda – bu insonning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat sohasini erkin tanlash, mehnat shartlarini belgilash, adolatli va xavfsiz ish muhitida ishlash huquqi deb tushish mumkin. Bu huquq 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida rasman e'tirof etilgan bo'lib, har bir inson “erkin mehnat qilish, ish o'rnini tanlashda erkin bo'lish” [1] huquqiga ega ekani ta'kidlangan. Mehnat erkinligi deganda faqatgina ish o'rnini tanlash erkinligi emas, balki insonning o'z hayot yo'lini ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat orqali belgilash huquqi tushuniladi. Falsafiy yondashuvda bu tushuncha insonning ontologik tahlil – ya'ni jamiyatdagi mavjudligi va o'zini namoyon qilish shakllari bilan bog'liq bo'lib, erkin mehnat shaxsning o'z qobiliyatini, ijodiy salohiyatini va axloqiy pozitsiyasini amalga oshiradigan asosiy maydon hisoblanadi. Aksiologik yondashuv esa mehnat erkinligini inson qadr-qimmati bilan bevosita bog'laydi. Inson qadr-qimmati – bu har bir insonning takrorlanmasligi, erkin fikrlashi, tanlash huquqiga ega bo'lishi va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatiga egaligidir. Mehnat erkinligi, shu ma'noda, nafaqat iqtisodiy huquq, balki ma'naviy va axloqiy qadriyatdir.

Falsafiy yondashuvda mehnat erkinligi insonning o'zligini ro'yobga chiqarishi, ijtimoiy haqiqatda o'z o'rnini topishi, ijodiy salohiyatini amalga oshirishi vositasi sifatida talqin qilinadi. Mehnat erkinligining cheklanishi insonni shaxsiy o'zini anglash, qadriyatlar tizimida o'z o'rnini belgilashdan mahrum qiladi, natijada uning ijtimoiy mavjudligi sun'iy cheklovlar uchraydi [2]. Falsafiy nuqtai nazardan inson mavjudligining muhim mezoni sifatida talqin etilmoqda, mehnat faqat moddiy ta'minot vositasi emas, balki insonning o'zini anglash, o'zini jamiyatda namoyon qilish, ichki salohiyatini ro'yobga chiqarish vositasidir. Inson erkin mehnat qilgandagina o'zining ijtimoiy ahamiyatini, shaxs sifatidagi qadrini to'liq his etadi. Aksincha, mehnat erkinligining cheklanishi — majburiy mehnat, ekspluatatsiya yoki iqtisodiy bosimlar orqali — insonni faqat mehnat quliga aylantirib qo'yadi, uni ichki erkinlikdan va ijodiy imkoniyatlardan mahrum etadi.

Klassik nemis falsafasi vakillari, xususan I. Kant va G. V. F. Hegel mehnatni insoniy erkinlikning real ifodasi deb bilganlar. Kant nazariyasida insonning axloqiy tanlovi va harakati uning ichki erkinligi asosida yuzaga chiqadi [3]. Mehnat esa bu erkin tanlovning amaliy ifodasidir. Immanuel Kantning axloqiy falsafasida erkinlik — bu insonning tashqi bosimlarsiz, ichki aql-idrok va axloqiy qonun asosida harakat qilish qobiliyatidir. Kant uchun inson faqatgina biologik mavjudot emas, balki axloqiy qonunlarga bo'ysunadigan ma'naviy mavjudotdir. G. V. F. Hegel esa mehnatga dialektik yondashadi. Uning fikricha, inson o'zini dunyoga mehnat orqali aks ettiradi, ya'ni tabiatni o'zgartirish orqali o'z “Men”ini shakllantiradi. Hegel mehnatni nafaqat moddiy mahsulot yaratish jarayoni, balki ongning faoliyati, ya'ni insonning o'z mohiyatini tashqi dunyoda mujassamlashtirishi deb tushunadi.

Inson qadr-qimmati va aksiologik yondashuv deganda – bu har bir shaxsning tabiatdan va jamiyatdan mustaqil holda ega bo'lgan axloqiy, ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy qiymatini anglatadi. Bu tushuncha insonni ob'ekt emas, balki sub'ekt sifatida qabul qilishning tamal toshi bo'lib xizmat qiladi.

Falsafa tarixida inson qadr-qimmati masalasi alohida dolzarb bo'lgan. I. Kant insonni hech qachon vosita sifatida emas, har doim maqsad sifatida ko'rish zarurligini uqtiradi [4]. Bunday

yondashuvda insonning har qanday harakati, xatti-harakati, xususan, mehnati ham ma'naviy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

Aksiologik nuqtai nazardan qadr-qimmat – bu insonning jamiyatdagi ahamiyatini belgilovchi va uni boshqa barcha mavjudotlardan farqlovchi yuksak ruhiy-axloqiy xususiyatdir. U biologik mavjudlik emas, balki ma'naviy-madaniy mohiyatni aks ettiradi [5]. Aksiologiya doirasida qadr-qimmat tushunchasi shaxsning o'zini anglash qobiliyati, axloqiy javobgarlikni his etishi, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi kabi mezonlar bilan bog'liq. Bu jihatdan, qadr-qimmat insonni ijtimoiy munosabatlar tizimida passiv obyekt emas, balki faol subyekt sifatida namoyon qiladi. U o'z hayotini mazmunli yo'nalishda shakllantirish, ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shish va boshqalarning huquqini tan olish orqali o'z qadr-qimmatini ro'yobga chiqaradi.

Mehnat erkinligi va inson qadr-qimmatini bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Erkin mehnat qilmaydigan jamiyatda inson qadr-qimmatini to'liq ro'yobga chiqmaydi, majburiy mehnat esa ushbu qadr-qimmatni toptashning aniq shaklidir. Shu bois bu ikki tushuncha ko'p hollarda inson huquqlari va ijtimoiy adolat doirasida birgalikda talqin qilinadi.

Postindustrial jamiyatlarda insonning qadr-qimmatini ko'proq uning mehnat faoliyati orqali baholanadi. Bu holat individual erkinlik, shaxsiy tanlov, ijodkorlik, mehnat sharoitlari va ularning ijtimoiy bahosi bilan bog'liq. Agar inson majburiy mehnatga, ekspluatatsiyaga yoki tengsizlikka duchor bo'lsa, u holda uning qadr-qimmatini buziladi [6]. Bunday jamiyatlarda mehnat endilikda oddiy jismoniy faoliyat emas, balki shaxsning o'zini anglash, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish va ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topish vositasi sifatida talqin qilinadi. Bu jarayonda inson erkinligi, shaxsiy tanlov imkoniyati va mehnat sharoitlarining sifati asosiy mezonlardan biriga aylanadi.

Ayni paytda, mehnat erkinligining mavjudligi shaxsni jamiyatda o'z ijtimoiy rolini mustaqil belgilash imkonini beradi. Shaxs o'z faoliyati bilan jamiyatga foyda keltirishda davom etadi va shu orqali o'z qadr-qimmatini ifoda etadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda majburiy mehnatga qarshi tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2018-yildan boshlab paxta yig'im-terimida majburiy mehnatni bartaraf etish bo'yicha hukumat va xalqaro tashkilotlar hamkorligida qator tashabbuslar yo'lga qo'yildi. ILO (Xalqaro Mehnat Tashkiloti) va boshqa monitoring organlari ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston mehnat erkinligini ta'minlash yo'lida sezilarli taraqqiyotga erishdi [7].

2022-yil 21-oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartishlar kiritilib, unda "inson qadr-qimmatini oliy qadriyat" ekanini alohida ta'kidlandi [8]. Bu konstitutsiyaviy norma jamiyat taraqqiyotida mehnat erkinligi va inson qadriyatini bir butun tizim sifatida ko'rishga imkon beradi.

Biroq amaliyotda hali ham ayrim muammolar mavjud: norasmiy sektor, migrantlar mehnatining ekspluatatsiyasi, ayollar mehnati sharoitlari kabi masalalar mehnat erkinligiga putur yetkazmoqda. Shu boisdan ushbu sohadagi islohotlarni chuqurlashtirish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va ijtimoiy ongda mehnat erkinligi va qadr-qimmatni uyg'unlashtirish zarurati mavjud [9]. Mehnat erkinligini to'liq ta'minlash uchun faqat qonuniy kafolatlar etarli emas, balki institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va eng muhimi, ijtimoiy ongda mehnat erkinligi va inson qadr-qimmatini uyg'unlashtirish muhim vazifa sifatida qaralishi kerak. Chunki jamiyatda axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar shakllanmaguncha, qonunlar amalda ishlamasligi mumkin. Ijtimoiy ongda o'zgarish esa mehnatga bo'lgan hurmatni kuchaytiradi, ekspluatatsiyani illat emas, balki muammo sifatida ko'rishga undaydi.

Zamonaviy falsafada qadriyatlar tizimi jamiyatning axloqiy, huquqiy va madaniy rivojlanishini belgilovchi mezon sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, mehnat erkinligi va inson qadr-qimmatini o'zaro to'qnashmaydigan, aksincha, uyg'unlashuvchi ikki yirik aksiologik kategoriya hisoblanadi.

Bu modelga ko'ra:

- mehnat erkinligi — tashqi ijtimoiy shart-sharoitlar asosidagi erkinlik;
- inson qadr-qimmatini — ichki ruhiy-axloqiy asosga ega bo'lgan yuksaklikdir;
- ULARNING uyg'unligi — adolatli va barqaror jamiyatning negizidir.

Shunday qilib, har qanday taraqqiyot modeli mehnat erkinligini ta'minlamas ekan, inson qadr-qimmatini to'liq ro'yobga chiqmaydi. Shu sababli mehnat munosabatlarida inson qadr-qimmatiga asoslangan yondashuv muhim aksiologik yondashuv sifatida qaraladi [10]. Mehnat munosabatlarida inson qadr-qimmatiga asoslangan yondashuv – bu nafaqat ma'naviy talab, balki barqaror ijtimoiy taraqqiyotning zaruriy aksiologik asosi hisoblanadi. Bunday yondashuvda har bir inson mehnat

ILMIY AXBOROT

jarayonida o'zining shaxsiy qadriyatlarini ro'yobga chiqarishi, ijodiy faol bo'lishi, va mehnatga bo'lgan hurmat asosida ijtimoiy integratsiyaga erishishi mumkin bo'ladi.

XULOSA

Mehnat erkinligi va inson qadr-qimmati zamonaviy demokratik jamiyatlar taraqqiyotining ustun kategoriyalaridan hisoblanadi. Ular nafaqat huquqiy, balki falsafiy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan o'zaro uyg'unlikda bo'lishi lozim. Mehnat erkinligining yo'qligi inson qadr-qimmatini buzadi, qadr-qimmatning yo'qligi esa mehnatning insoniy mohiyatini yo'qqa chiqaradi.

O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar olqishlanarli bo'lsa-da, ularning samaradorligini ta'minlashda ijtimoiy ong, huquqiy madaniyat va institutsional mexanizmlar kuchaytirilishi zarur. Aynan shu orqali mehnat erkinligi va inson qadr-qimmati o'zaro uyg'unlashgan holda jamiyatda ustuvor qadriyatga aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United Nations. Universal Declaration of Human Rights. <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>
2. Fromm, E. (1955). *The Sane Society*. New York: Holt, Rinehart and Winston.
3. Kant, I. (1996). *Groundwork for the Metaphysics of Morals*. Cambridge University Press.
4. Hoffe, O. (2001). *Kants Kritik der praktischen Vernunft*. Beck Verlag.
5. Berdyaev, N. (1949). *The Destiny of Man*. London: G. Bles.
6. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*. Oxford University Press.
7. International Labour Organization. "Progress Report on Forced Labour in Uzbekistan" (2022). <https://labourmission.org/en/news/ilo-cites-dramatic-drop-in-uzbek-use-of-forced-labor/>
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2022-yilgi tahrir). <https://lex.uz/docs/5972581>
9. Human Rights Watch. "Uzbekistan: Persistent Forced Labor Concerns" (2023). <https://www.hrw.org/news/2023/02/09/uzbekistan-persistent-forced-labor-concerns>
10. Rokeach, M. (1973). *The Nature of Human Values*. New York: Free Press.